O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR*
*(DASTLABKI MA’LUMOT)*



Sanoat **statistikasi boshqarmasi**
**Tel.: 71-202-80-46**

# Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar oyida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar oyida shahar korxonalari tomonidan 4,9 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (69,9 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,4 trln. so‘mni tashkil etdi.




***B** – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 35,6 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 12,5 % ga o’sishi kuzatildi. Hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 30,4 % ga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 25,4 % ga pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,0 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 20,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar oyida, % da)*







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Gaz kondensati**




**Tabiiy gaz**






## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar | 2022- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Neft,** *ming t.* | 57,2 | 51,3 | -5,9 |
| **Tabiiy gaz,** *mln. kub.m.* | 2985,8 | 3075,9 | 90,1 |
| **Gaz kondensati,** *ming t.* | 64,2 | 65,0 | 0,8 |
| **Chaqiq tosh,** *ming t.* | 20,1 | 0,7 | -19,3 |
| **Shag‘al ,** *ming t.* | 5,4 | 0,0 | -5,4 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,4 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 69,7 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi**,
*(yanvar oyida, % da)*




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 22,5 % ni (2021- yilning yanvar oyida – 15,9 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 15,8 % (20,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 24,9 %  (21,3 %) va quyi texnologiyalisi – 36,9 % (42,4 %)ni tashkil etdi.

**Yuqori texnologiyali**




**O‘rta-yuqori texnologiyali**




**O‘rta-quyi texnologiyali**




**Quyi texnologiyali**




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi –

15,6 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 81,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 8,0 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 218,2 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,6 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 94,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,3 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 106,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,1 % (2021- yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,8 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1456,0 tonna mashina yoki qo’lda to’qilgan matolar (13,8 % ga oshgan), 3001,9 ming litr pivo mahsulotlari (24,5 %) hamda 4,0 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (57,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**O‘simlik yog‘I (tozalangan)**




**Margarin va yormalar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Pivo**




**Aroq**




**Uzum vinosi**



**Tamaki mahsulotlari**




**Paxtadan yigirilgan ip**




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar | 2022- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Traktorlar - dona** | 5,0 | 0,0 | -5,0 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming t.* | 9,4 | 4,0 | -5,3 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** *tonna.* | 3 486,4 | 2 630,8 | -855,6 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalangan),** *tonna.* | 0,0 | 67,7 | 67,7 |
| | | | |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar oyida qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 13 dona seyalka ishlab chiqarildi.

### Toshkent shaharda sovutgichlar va muzlatgichlar ishlab chiqarish sanoati, *yanvar oyida*

***miqdori ming dona***




***o‘sish sur’ati, % da***




## Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar | 2022- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Akril va vinil polimerlari asosidagi bo‘yoqlar va laklar,** t. | 840,0 | 1240,0 | 400,0 |
| **Tamaki mahsulotlari,** *mln. dona* | 232,6 | 211,7 | 232,6 |

## Metallurgiya sanoati

*(yanvar)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida metallurgiya sanoati ulushi 4,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 15,3 % ga ko’paygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 8,0 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 118,2 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 394,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa metall bo’lmagan mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(yanvar oyida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 3,9 % ga kamaygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 195,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar oyida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 86,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,8 %, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 484,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



**FHI % da**




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar oyida)*

**FHI % da**






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 12,6 % ga kamaygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 117,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 244,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar oyida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar oyida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 106,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 3,9 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 292,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



*FHI % da*




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar oyida)*



*FHI % da*




2021- yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 71,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi 118,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 29,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar oyida)*

2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 78,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni, fizik hajm indeksi 12,8 % ga ko’paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 203,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar oyida)*







2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 57,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 36,6 % ga kamaygan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 4,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

*(yanvar oyida)*

FHI
% da






2021- yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 19,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 90,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 15,6 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 18,7 % ga kamaydi hamda ishlab chiqarish hajmi 772,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar oyida)*

2021- yilning yanvar oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 118,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 123,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 93,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



FHI
% da



# Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar oyida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (7,6 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 25,4 % ga kamayganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar oyida, % da)*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar | 2022- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 36,1 | 36,3 | 0,2 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 2123,2 | 1823,0 | -300,2 |
| **Elektroenergiya uzatish bo’yicha xizmatlar, ming so ‘m.** | 77 954,0 | 74 455,0 | -3 499,0 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar oyida*

trln. so‘m







FHI
*% da*

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 trln.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar oyida, % da)*

2020- y.







2021- y.

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar | 2022- yil yanvar | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 5,6 | 12,6 | 7,0 |
| **(Xavfli bo‘lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna** | 41,8 | 15,8 | -26,0 |
| **Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash, mlrd. so‘m** | 12,4 | 20,2 | 7,8 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 62,2 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash 62,7 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo’yicha xizmatlar 2,2 martaga ga o’shish kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,1 trln.so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 132,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 42,8 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,1 % (2021- yil yanvar oyida 4,3 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Chilonzor tumaniga to‘g‘ri kelib 28,4 % ni, shuningdek, Yashnobod tumani 18,9 % ni, Sergeli tumani 9,2 % ni hamda Olmazor tumani 8,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida shaharda o‘sish sur’ati (107,7 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Chilonzor (598,4 %), Olmazor (146,4 %), Bektemir (143,5 %), Yakkasaroy (140,4 %), Mirzo Ulug’bek (118,0%), Yashnobod (105,9%) tumanlarida hamda Mirobod tumanida (97,9 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022-yilning yanvar oyida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **2114,3** | **100** | **133,2** |
| **Uchtepa** | **142,1** | **6,1** | **67,2** |
| **Bektemir** | **154,2** | **7,3** | **143,5** |
| **Yunusobod** | **55,0** | **2,6** | **95,6** |
| **Mirzo Ulug’bek** | **96,6** | **4,6** | **118,0** |
| **Mirobod** | **153,1** | **7,2** | **153,1** |
| **Shayxontoxur** | **32,8** | **1,6** | **61,8** |
| **Olmazor** | **170,6** | **8,1** | **146,4** |
| **Sergeli** | **193,9** | **9,2** | **92,3** |
| **Yakkasaroy** | **69,5** | **3,3** | **140,4** |
| **Yashnobod** | **400,0** | **18,9** | **105,9** |
| **Yangihayot** | **45,0** | **2,1** | **69,5** |
| **Chilonzor** | **601,4** | **28,4** | **598,4** |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Chilonzor tumaniga to‘g‘ri kelib, 40,4 % shuningdek, Yashnobod 17,2 %, Mirobod tumani 10,0 % ni, Uchtepa tumani 6,9 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar oyida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | 1391,7 | 100 | 149,9 |
| **Uchtepa** | 95,7 | 6,9 | 58,1 |
| **Bektemir** | 10,0 | 0,7 | 347,9 |
| **Yunusobod** | 14,0 | 1,0 | 83,2 |
| **Mirzo Ulug’bek** | 77,2 | 5,5 | 114,1 |
| **Mirobod** | 139,5 | 10,0 | 98,4 |
| **Shayxontoxur** | 21,4 | 1,5 | 65,7 |
| **Olmazor** | 77,6 | 5,6 | 139,5 |
| **Sirg’ali** | 85,5 | 6,1 | 94,9 |
| **Yakkasaroy** | 36,1 | 2,6 | 82,3 |
| **Yashnobod** | 239,7 | 17,2 | 112,4 |
| **Yangihayot** | 32,7 | 2,4 | 79,9 |
| **Chilonzor** | 562,4 | 40,4 | 964,9 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Chilonzor tumaniga to‘g‘ri kelib 40,4 % ni, shuningdek, Yashnobod tumani 17,2 % ni, Mirobod tumani esa 10,0 % ni tashkil etdi.

# <u>Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati</u>

*2022- yilning yanvar oyida*

| Hudud | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **615,3** | **100** | **121,1** |
| **Uchtepa** | **46,4** | **7,5** | **99,3** |
| **Bektemir** | **144,2** | **23,4** | **137,8** |
| **Yunusobod** | **35,2** | **5,7** | **108,8** |
| **Mirzo Ulug’bek** | **19,4** | **3,2** | **136,2** |
| **Mirobod** | **13,6** | **2,2** | **93,8** |
| **Shayxontoxur** | **5,0** | **0,8** | **48,9** |
| **Olmazor** | **93,1** | **15,1** | **152,6** |
| **Sergeli** | **100,4** | **16,3** | **92,9** |
| **Yakkasaroy** | **33,4** | **5,4** | **590,4** |
| **Yashnobod** | **73,3** | **11,9** | **164,2** |
| **Yangihayot** | **12,3** | **2,0** | **51,6** |
| **Chilonzor** | **39,0** | **6,3** | **92,3** |

# Toshkent shahri hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar oyida*

| | Mlrd. so'm | Ulushi % da | O'sishi % da |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | 4942,9 | 100,0 | 109,6 |
| **Uchtepa** | 226,8 | 4,6 | 82,2 |
| **Bektemir** | 305,5 | 6,2 | 112,1 |
| **Yunusobod** | 215,8 | 4,4 | 109,8 |
| **Mirzo Ulug'bek** | 313,9 | 6,4 | 88,7 |
| **Mirobod** | 314,7 | 6,4 | 72,1 |
| **Shayxontoxur** | 174,2 | 3,5 | 91,7 |
| **Olmazor** | 309,8 | 6,3 | 101,4 |
| **Sergeli** | 371,1 | 7,5 | 108,0 |
| **Yakkasaroy** | 308,4 | 6,2 | 105,7 |
| **Yashnobod** | 1497,7 | 30,3 | 95,1 |
| **Yangihayot** | 121,8 | 2,5 | 78,3 |
| **Chilonzor** | 783,2 | 15,8 | 144,2 |

## Toshkent shahri hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o‘sish sur’ati (120,1 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Chilonzor (598,4 %), Olmazor (146,4 %), Bektemir (143,5 %) hamda Yakkasaroy tumanlarida (140,4 %) qayd etildi.

**Toshkent shahri jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Shaharda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Yashnobod tumani (shaharda sanoat ishlab chiqarish hajmining 30,3 % ) hamda Chilonzor (15,8 %), Sirg’ali (7,5 %), Mirobod (6,4 %) va Mirzo Ulug’bek (6,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Shayxontohur (3,5 %) hamda Yangihayot (2,5 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.



.

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022- yilning yanvar oyida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1,2 trln. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,5 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 50,0%), Sirg’ali (47,3 %), Uchtepa (35,1 %), Yuusobod (31,0 %) hamda Yangihayot (30,6 %) tumanlarida kuzatildi.






Toshkent shahar hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Yashnobod (11,9 %), Shayxontohur (16,7 %), Chilonzor (20,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

*(2022- yil 1- fevral holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,2 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 12,9 % i) Olmazor tumanida, 2,0 mingtasi (12,3 %) Chilonzor tumaniga, 1,8 mingtasi (11,4 %) Uchtepa tumaniga, 1,7 mingtasi (10,6 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (8,8 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,6 %) Mirzo Ulug’bek tumaniga to‘gri kelmoqda.




2022- yilning yanvar oyida shahardada 132 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 22 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi 16,7 %) Uchtepa tumanida, 14 tasi (10,6 %) Olmazor tumanida, 14 tasi (10,6 %) Chilonzor tumanida, 12 tasi (9,1 %) Yakkasaroy tumanida, 9 tasi (6,8 %) Yunusobod tumanida hamda 9 tasi (6,8 %) Yashnobod tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2022- yil 1- fevral holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 088 ta), Chilonzor (1 994 ta), Uchtepa (1 839 ta), Yunusobod (1 712 ta) hamda Shayxontohur (1 428 ) tumanlarida qayd etildi.

**Toshkent shahrida eng ko‘p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**

*(2022- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*




**Toshkent shahrida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**

*(2022- yil 1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022-yilning 1-fevral holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (555 ta), Yangihayot (609 ta), Mirobod (964 ta), Sirg’ali (1016 ta), Yakkasaroy (1 206 ta), Yashnobod (1 378 ta), Mirzo Ulug’bek (1388),Shayxontohur (1428), Yunusobod (1712), Uchtepa (1839) tumanlarida qayd etildi.


**Sanoat statistikasi bo’limi**

*Tel.: (71) 203-88-16*